XALQ DEPUTATLARI QO‘SHTEPA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 13-iyul VI-70-60-11-157-K/24 Qo‘shtepa tumani

Qo‘shtepa tumanining ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni “Yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer hisobini yuritish hamda kadastr xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-son bayoni hamda mazkur bayonning 20-bandi ijrosini ta’minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son “Yo‘l xaritasi” tasdiqlangan.

“Yo‘l xaritasi”sining 6 va 7-bandlarida hududiy komissiyalar tomonidan muammoli hududlarda chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha tayyorlangan takliflarni ko‘rib chiqish va qo‘shni hududlar bilan kelishish hamda kelishilgan chegara chizig‘ini tasdiqlash bo‘yicha tegishli Xalq deputatlari Kengashining qarorlarini qabul qilish choralarini ko‘rish topshirig‘i berilgan.

Ma’lumki, Qo‘shtepa tumani ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtiruvchi tuman Komissiyasining 2024-yil 10-iyundagi 60^{b}-sonli bayonnomasi bilan Qo‘shtepa tumanining Marg‘ilon shahar, Farg‘ona, Toshloq, Yozyovon va Oltiariq tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasining kartorafik chizmalari va chegaraning tavsiflari tegishlicha ilovalarga muvofiq tasdiqlangan.

“Yo‘l xaritasi”ning 5-bandi ijrosini bo‘yicha, Kadastr agentligi tomonidan Qo‘shtepa tumanining chegara chizig‘i chizmasi va tavsiflari tayyorlanib, Agentlikning 2024-yil 28-martdagi 03/08-2963-son xati bilan Kadastr agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasiga ko‘rib chiqish va kelishish uchun taqdim etilgan.

Respublika aerogodeziya markazi Farg‘ona hududlararo bo‘linmasining 2024-yil 10-iyundagi 92-sonli xati bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga murojaat qilib, tuman kengashining sessiyasida “Qo‘shtepa tumanining chegara chizig‘i chizmasi va tavsiflarini ko‘rib chiqilishida amaliy yordam berilishi so‘ralgan.

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasiga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

- O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 28-martdagi 03/08-2963-sonli xati;

- Respublika aerogodeziya markazi Farg‘ona xududlararo bo‘linmasining 2024-yil 10-iyun 92-sonli xati;

- tuman ishchi komissiyasining 2024-yil 10-iyundagi 60[b]-sonli bayonnomasi inobatga olinsin.

2. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat xokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasida “Xalq deputatlari Kengashi, hokim O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq yer munosabatlariga doir boshqa masalalarni hal qilishi”;

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasida xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar (Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari va shaharlari) Kengashlari o‘z vakolatlari doirasida ma’muriy-hududiy tuzilish masalalariga doir qarorlar qabul qilishi belgilanganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

3. Qo‘shtepa tumani ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtiruvchi komissiyasining (keyingi o‘rinlarda-Komissiya deb yuritiladi) Qo‘shtepa tumanining Marg‘ilon shahar, Farg‘ona, Toshloq, Yozyovon va Oltiariq tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash to‘g‘risida”gi yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

4. Qo‘shtepa tumanining ma’muriy-hududiy chegara uzunligi va umumiy yer maydoni 1-ilovaga, Qo‘shtepa tumanining ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ining sxemasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Xalq deputatlari viloyat Kengashining tegishli qarori qabul qilinganda hamda ma’muriy-hududiy chegara davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandagina (Ma’muriy hududiy birliklar davlat reyestriga kiritilganda) Qo‘shtepa tumanining Marg‘ilon shahar, Farg‘ona, Toshloq, Yozyovon va Oltiariq tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasi belgilangan deb hisoblansin.

6. Mazkur qarorni bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklansin.

7. Ushbu Kengash qarori rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari viloyat Kengashidan so‘ralsin.

Kengash raisi

ABDULLAYEV
ANVARJON
ALIYEVICH

Xalq deputatlari Qo‘shtepa tumani
Kengashining
2024-yil 13-iyuldagi
VI-70-60-11-157-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Qo‘shtepa tumanining ma’muriy-hududiy chegara uzunligi va umumiy yer maydoni to‘g‘risida

M A ’ L U M O T

№	Tuman nomi	Chegara uzunligi (metr)	Yer maydoni (gektar)
1.	**Qo‘shtepa tumani**	**286759,94**	**36839,45**

Xalq deputatlari Qo‘shtepa tumani
Kengashining
2024-yil 13-iyuldagi
VI-70-60-11-157-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumanining ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining

SXEMASI

